

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI
HAZORASP TUMAN STATISTIKA BO‘LIMI**

**HAZORASP TUMANINING
ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI**

**2023- YIL
YANVAR-SENTABR**

Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l.	–	litr
%.	–	foiz	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	marta
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSh doll.	–	million AQSh dollari	ga.	–	gektar
kv.	–	kvadrat	tn.	–	tonna
km.	–	kilometr	1), 2), 3).....	–	izohning mavjudligi
m	–	metr			

MUNDARIJA

<i>Nomi</i>	<i>bet.</i>
TUMAN XARITASI VA ASOSIY KO‘RSATKICHLARI	4-5
I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI	6-9
Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar	6-8
Ijtimoiy ko‘rsatkichlar	9
II. SANOAT	10-12
Sanoat ishlab chiqarish hajmi hamda sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi	10-11
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlaridagi ulushi	12
III. XIZMATLAR	13-18
Tumanda jami xizmatlarning o‘shish sur‘atlarining dinamikasi	13-14
Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari	15-18
IV. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA‘RIFI	19-26
2023- yilning 1- oktabr holatiga ro‘yxatga olingan hamda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi	19-23
Kichik tadbirkorlik subyektlari (fermer xo‘jaliklarisiz)	24
Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi.Oilaviy korxonalar	25-26
V. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	27-30
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	27-28
2023- yilning yanvar-sentabrda yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha ob‘ektlari	29
Qurilish faoliyati	30
VI. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI	31-38
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi	31
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasining asosiy ko‘rsatkichlari	32
Yanvar-iyun oylarida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish	33-34
2023- yil 1- oktabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni	35
2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari	36-37
Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi	38
VII. ISTE‘MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	39-40
Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo‘shgan holda)tarkibi	39
Tumanda tashqi savdoda eksport va importni ulushi	40
VIII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI	41-44
Doimiy aholi soni	41
2023- yil yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy harakati	42
2023- yil 1-oktabr holatiga aholining migratsiya ko‘rsatkichlari	43
Tumanning ijtimoiy ko‘rsatkichlari	44
2023- yil yanvar-sentabr oyi uchun o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi	44

<i>Viloyat</i>	<i>Xorazm</i>
Tuman	Hazorasp
Markazi	<i>Hazorasp shaharchasi</i>
Tashkil topgan vaqti	<i>19.09.1926-yil</i>
Umumiy maydoni, <i>ming km²</i>	<i>0,45</i>
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar	-
Qishloqlar soni	-
Mahalla fuqarolari yig'inlari soni	<i>47 ta</i>
Qishloq aholi punktlari	<i>68 ta</i>
2023-yil 1-oktabr holatidagi doimiy aholi soni, ming kishi	<i>204,9</i>
<i>sh.j.:</i> erkaklar	<i>102,4</i>
ayollar	<i>102,5</i>
Viloyat markazigacha bo'lgan masofa, km	<i>56 km</i>

Chegaradosh viloyatlar

*Turkmaniston Respublikasi,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,*

I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022- yilning yanvar- sentabrga nisbatan foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2022- yilning yanvar- sentabriga nisbatan foizda</i>
Sanoat	381,4	101,4	1873,8	99,5
Iste'mol tovarlari	58,9	101,5	289,6	99,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1848,9	102,1	9084,6	100,2
Asosiy kapitalga investitsiyalar	397,9	99,1	1955,2	97,3
Qurilish ishlari	290,3	90,1	1426,3	88,7
Chakana tovar aylanmasi	860,4	101,8	4228,0	100,0
Xizmatlar, jami	675,5	111,3	3319,2	109,3
Eksport, ming AQSh doll.	22016,6	143,7	108,2	141,1
Import, ming AQSh doll.	19577,9	156,9	96,2	154,1

Tumanning viloyat bilan solishtirma asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>2022 -yilning yanvar- sentabriga nisbatan foizda</i>	<i>Tumanning viloyatda tutgan ulushi, %da</i>
Sanoat mahsuloti	381,4	101,4	2,5
Iste'mol tovarlari	58,9	101,5	0,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1848,9	102,1	9,6
Asosiy kapitalga investitsiyalar	397,9	99,1	5,9
Qurilish ishlari	290,3	90,1	7,1
Chakana tovar aylanmasi	860,4	101,8	10,5
Bozor xizmatlari	675,5	111,3	7,2
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	76,2	123,4	9,5
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)	599,6	102,7	9,7
Tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh dollari)	41594,5	149,6	6,3
Eksport (ming AQSh dollari)	22016,6	143,7	9,7
Import (ming AQSh dollari)	19577,6	156,9	4,5

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili

	<i>2023- yil yanvar-sentabr (mlrd. so'm)</i>	
	<i>Xorazm viloyati</i>	<i>Tuman bo'yicha</i>
Sanoat mahsuloti	15143,4	381,4
o'sish sur'ati, foizda	105,8	101,4
Iste'mol tovarlari	9559,1	58,9
o'sish sur'ati, foizda	104,0	101,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	19279,9	1848,9
o'sish sur'ati, foizda	106,3	102,1
Asosiy kapitalga investitsiyalar	6744,8	397,9
o'sish sur'ati, foizda	95,4	99,1
Qurilish ishlari	4088,7	290,3
o'sish sur'ati, foizda	102,9	90,1
Chakana tovar aylanmasi	8187,6	860,4
o'sish sur'ati, foizda	103,7	101,8
Jami xizmatlar	9330,0	675,5
o'sish sur'ati, foizda	112,9	111,3
Ekspart, ming AQSh dollari	226466,7	22016,6
o'sish sur'ati, foizda	115,0	143,7
Import, mln. AQSh dollari	435326,0	19577,9
o'sish sur'ati, foizda	109,1	156,9

Ijtimoiy ko'rsatkichlar


	<i>Soni</i>		<i>Koeffitsienti, 1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr</i>
Doimiy aholi soni, 1-oktabr holatiga (ming kishi)	201,1	204,9	x	x
Tug'ilganlar (kishi)	3682	3834	24,6	25,2
O'lganlar (kishi)	697	695	4,7	4,6
Tuzilgan nikohlar (kishi)	1204	1203	8,1	7,9
Nikohdan ajralishlar (kishi)	151	189	1,0	1,2
Ko'chib kelganlar (kishi)	182	213	1,2	1,4
Ko'chib ketganlar (kishi)	731	663	4,9	4,4

II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida tumanda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 381,4 mlrd. so'mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati indeksi 101,4 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida 58,9 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2022-yil yanvar-sentabriga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi. Jumladan, 37,9 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 64,4 % ni tashkil qildi va 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan mos ravishda 98,7 % ni tashkil qilib, 21,0 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarildi va umumiy hajmga nisbatan 35,6 % ni tashkil qildi va 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan mos ravishda 127,5 % ni tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, foizda



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz ichki bozorini tovar va xizmatlar bilan ta'minlashda, aholi bandligi va real daromadlarini oshirishda, resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanishda, ijtimoiy guruhlar daromadlarining nomutanosibligini kamaytirishda, iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy katalizatori hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bozor kon'yukturasi o'zgarishlariga ham, iste'molchi talabi o'zgarishlariga ham tez moslashishga qodir bo'lib, iste'mol bozoridagi muvozanatni ushlab turishda muhim ro'l o'ynaydi, shuningdek, raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi. Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida tumanda 381,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi amalga oshirilgan bo'lib, shundan 99,7 mlrd. so'm yoki umumiy hajmning 26,1 % ni kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibi (mlrd. so'mda)




Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq tumanda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 283,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib Xorazm viloyati va tumanlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan

taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida joriy yilning yanvar-sentabr oylarida tumanda sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 381,4 mlrd. so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich Xorazm viloyatining jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishida 2,5 % tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 1873,8 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, tumanda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 58,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, Xorazm viloyatining jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishida 0,6 % tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari aholi jon boshiga 289,6 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,7 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.


Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibi (mlrd. so'mda)



III. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi. Natijada, 2023 -yil yanvar–sentabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 675,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. O‘sinh sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ni tashkil etdi.

Tumanda jami xizmatlarning o‘sinh sur‘atlarining dinamikasi, % da




**Tumanda ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan)
xizmat hajmining o'sishi
(2023- yil yanvar-sentabr oylari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish
(2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun)

	<i>Mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>
Xizmatlar – jami	675,5	111,3	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	44,6	124,2	6,6
moliyaviy xizmatlar	211,9	130,3	31,4
transport xizmatlari	156,5	100,9	23,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	156,5	98,9	23,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	10,5	106,1	1,6
savdo xizmatlari	173,8	105,9	25,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	19,3	102,7	2,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	9,6	107,1	1,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3,5	106,3	0,5
ijara xizmatlari	7,4	98,8	1,1
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	17,2	109,7	2,5
shaxsiy xizmatlar	18,3	115,2	2,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,7	103,9	0,1
boshqa xizmatlar	2,3	105,2	0,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlarining o'sish sur'ati, foizda (2023- yil yanvar–sentabr oylarida)




Tumanda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (130,3), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (124,2 %)da , yashash va ovqatlanish xizmatlari (106,1 %)da va kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (109,7) da qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (98,8 %) da, shaxsiy xizmatlari (115,2 %) da va boshqa xizmatlari (98,8 %) da qayd etildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, foizda

(2023- yil yanvar–sentabr oylarida)



Tuman bo'yicha yuqori ulush moliyaviy xizmatlarda (31,4 %), savdo xizmatlarida (25,7 %) va transport xizmatlarda (23,2 %) qayd etildi. Uncha yuqori bo'lmagan ulush boshqa xizmatlar (0,3%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (0,5 %), va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,1 %) da qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
(ko'rsatilgan) bozor xizmatlarning hajmi, mlrd. so'm**
(2023- yil yanvar–sentabr oylarida)



Tumanda eng katta xizmat hajmi moliyaviy xizmatlari (211,9 mlrd. so'm) va savdo xizmatlari (173,8 mlrd. so'm) ga to'g'ri keladi.

Eng kichik xizmat hajmlar esa me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,7 mlrd. so'm) va boshqa xizmatlari (2,3 mlrd. so'm) ga to'g'ri keladi.

IV. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Barchamizga ma'lumki, Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tartibini tubdan takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ularning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida bevosita muloqot qilmaydigan shakllaridan foydalanishni jadal rag'batlantirilmoqda.

Bugungi kunda ushbu borada qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tartibini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi ma'qullanib, ushbu chora-tadbirlarda tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib xayotga tadbiiq qilinmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va jamiyatimizda ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan o'z faoliyatlarini mustaqil boshlashiga va biznesini rivojlantirishiga muhim poydevor bo'ladi.

Bu o'z navbatida, tadbirkorlarning va mamlakatimizga kirib kelayotgan investitsiyalarni yanada ko'payishiga va ayni damda qo'shimcha ish o'rinlarini vujudga kelishiga, fuqarolarning turmush darajasini yanada oshirishiga xizmat qiladi.

Izoh tariqasida:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25 dekabrdaqi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-sonli qaroriga muvofiq tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan taqdim etilgan bildirishnomaga asosan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 2138 taga yetdi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,9 % ko'paygan va faoliyat ko'rsatayotganlari soni esa 1666 tani tashkil qildi bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga yoki 1,1 % ga ko'paygan.

Ma'lumot tariqasida:


Oxirgi 5 yillikka e'tibor beradigan bo'lsak, tumanimizda 2019- yillarda davlat ro'yxatidan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlar soni 1067 tani (fermer va dexqon xo'jaliklarsiz) tashkil etgan bo'lsa, bugungi kun holatiga 1882 ta bo'lib 815 taga ko'payganini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi 826 tasi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (38,6 %), 332 tasi sanoat (15,5 %), 79 tasi qurilish (3,7 %), 155 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (7,2 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2023- yilning 1- oktabr holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>
Jami	2138	100,0	1666	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	155	7,2	101	6,1
sanoat	332	15,5	223	13,4
qurilish	79	3,7	60	3,6
Savdo	826	38,6	670	40,2
tashish va saqlash	196	9,2	159	9,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	76	3,6	55	3,3
axborot va aloqa	17	0,8	9	0,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	38	1,8	34	2,0
boshqa turlari	419	19,6	355	21,3


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning ulushi 77,9 % ni, shu bilan birga faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 22,1 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda.


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, %

01.10.2022- y.



Faoliyat ko'rsatayotganlar


01.10.2023- y.



faoliyatsiz

2023- yil 1-oktabr holatiga 1444 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 101 ta, oilaviy korxonalar – 138 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar –1191 va 14 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha asosiy qismi mas'uliyati cheklangan jamiyatlari xissasiga to'g'ri keladi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida jami 384 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 1,6 % ga ko'pdir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning katta ulushi savdoda 44,2 % ni, tashish va saqlashda 18,5 % ni, sanoatda 15,6 % ni va 12,0 % ni boshqa faoliyatga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2023- yil 1-oktabr holatiga tumanimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 1435 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 % ga ko'paygan.


Faoliyat ko'rsatayotgan jami 1435 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 8 tasi (0,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 31 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 54 tasi (3,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 59 tasi (4,1 %) - qurilishda, 159 tasi (11,1 %) - tashish va saqlashda, 101 tasi (7,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, shuningdek 134 tasi (9,2%) - boshqa faoliyat, 221 tasi (15,4 %) - sanoatda, 668 tasi (46,6 %) – savdo turlariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga kamaygan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 2 tasi qo'shma korxonalar, 3 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda



Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqobatbardoshlik muhitini yaratish maqsadida chet ellik sarmoyadorlarga yurtimiz bozoriga kirib kelishlari o'z faoliyatlarini olib borishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Buning natijasida keyingi yillarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar yildan yilga soni kengayib borayotganligini statistik raqamlarda o'z aksini topgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 2 tasi (40%) qurilish, 1 tasi (20,0%) sanoat, 2 tasi (40,0 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish faoliyat turiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**
(2023- yilning 1- oktabr holatiga)



	<i>Birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	5	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Sanoat	1	20,0
Savdo	-	-
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2	40,0
Qurilish	2	40,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-
Tashish va saqlash	-	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-
Axborot va aloqa	-	-
Boshqa turlari	-	-




O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2012 yil 26 aprelda qabul qilingan 327-sonli “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonuni kuchga kirgandan boshlab, Respublikamizda oilaviy korxonalar faoliyatini tashkil etishda, korxonalar huquqini muhofaza qilishda va faoliyatini yuritishda sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Buning natijasida, oilaviy korxonalar soni ko‘payib mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishida ijobiy ulushiga ega bo‘lib bormoqda.

Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni - 2023- yil 1- oktabr holatiga 196 tani tashkil etib, ulardan 138 tasi yoki 70,4 % faoliyat yuritadi.


Oilaviy korxonalar sonining o‘shish dinamikasi, birlikda



Ro‘yhatdan o‘tgan



Faoliyat ko‘rsatayotgan




Yangi tashkil etilgan


V. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2023- yil yanvar–sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi milliy valyutada 397,9 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 99,1 foizni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha taqsimlanishi (jamiga nisbatan foizda)



Joriy davrda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari asosan korxonalarining o‘z mablag‘lari (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 39,1 %), tijorat banklari kreditlari (1,6 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

2023- yilning yanvar–sentabr oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 20,4 mlrd.so‘m o‘zlashtirildi va jami tuman investitsiyasidagi ulushi 5,1 foizni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida tuman bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi

(mln. so‘m)

	<i>Jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar</i>	<i>shu jumladan:</i>		
		<i>xukumat kafolati ostidagi</i>	<i>to‘g‘ridan-to‘g‘ri</i>	<i>boshqalar</i>
Jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar	20446,4	-	-	20446,4
<i>Shu jumladan:</i>				
Jami xorijiy investitsiyalar	-	-	-	-
Jami xorijiy kreditlar	20446,4	-	-	20446,4

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

Tumanda uy-joy qurilishida jami 104,7 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki investitsiyalar hajmining 26,3 foizini tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha ob'ektlari


<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>Barcha manbalar hisobidan</i>			
	<i>foydalanishga topshirildi</i>		<i>2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan foizda</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan qishloq joylarda</i>	<i>jami</i>	<i>shu jumladan qishloq joylarda</i>
Uy-joy, umumiy maydoni <i>ming.kv.m</i>	87,1	87,1	107,4	107,4
<i>undan:</i> yakka tartibdagi uy-joylar	87,1	87,1	107,4	107,4
namunaviy loyihalar bo'yicha	-	-	-	-
Kasalxonalar, <i>yotoq o'rni</i>	-	-	-	-
Umumiy ta'lim va maxsus maktablar, <i>o'quvchilar o'rn</i>	944	944	-	-
Suv tarmoqlari, <i>km</i>	23,5	23,5	x	x
Gaz tarmoqlari, <i>km</i>	-	-	-	-

2023- yilning yanvar-sentabrida umumiy maydoni 87,1 ming kv.m. bo'lgan 260 ta (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 107,4 foiz) kvartiralar foydalanishga topshirildi.


Qurilish faoliyati

2023- yil yanvar-sentabrida 290,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 90,1 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga qurilish ishlari 1426,2 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86,7 foiz o'sish kuzatildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida tuman bo'yicha qurilish ishlarining hajmi va o'sish sur'ati



VI. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha ulushi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari tomonidan 78,4 foizni, fermer xo‘jaliklari tomonidan 19,6 foizni, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan 2,0 foizni tashkil etdi.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan 1848,9 mlrd.so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 102,1 foizni tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasining asosiy ko‘rsatkichlari
(2023- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>O‘sish sur‘ati, %</i>
	<i>2022- y.</i>	<i>2023- y.</i>	
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish hajmi	1639,0	1848,9	102,1
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	1543,9	1753,9	102,4
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo‘jaliklari	318,7	344,2	111,8
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	1118,5	1375,5	100,4
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	36,6	34,2	88,2
Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi - jami	521,6	572,8	106,2
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo‘jaliklari	280,9	299,4	113,1
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	219,8	257,6	99,9
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	20,9	15,8	78,5
Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi- jami	1022,3	1181,1	100,5
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo‘jaliklari	37,9	544,8	101,6
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	968,7	1117,8	100,5
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,7	18,4	101,1
O‘rmon xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar hajmi	40,9	42,4	100,5
Baliq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar hajmi	40,1	40,3	101,6

2023- yil 1-oktabr holatiga dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish

	<i>tonna</i>		<i>O'sish sur'ati, %</i>
	<i>2022- y.</i>	<i>2023- y.</i>	
Don va dukakli don – jami	35315,5	37700,6	106,8
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	21448,3	23516,3	109,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	12046,5	12084,3	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1820,7	2100,0	115,3
Shu jumladan boshokli don – jami	26305,1	28572,2	108,6
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	17645,9	19611,2	111,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	6838,5	6861,0	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1820,7	2100,0	115,3
Bug'doy – jami	26297,2	28377,7	107,9
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	17638,0	19437,7	110,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	6838,5	6840,0	100,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1820,7	2100,0	115,3
Makkajuxori – jami	607,7	700,6	115,3
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	418,7	510,6	121,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	189,0	190,0	100,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-	-
Sholi - jami	8316,7	8333,0	100,2
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	3332,7	3335,0	100,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4984,0	4998,0	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-	-.
Dukkakli don – jami	86,0	94,8	110,2
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	51,0	59,9	116,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	35,0	35,3	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-	-

	<i>tonna</i>		<i>O'sish sur'ati, %</i>
	<i>2022- y.</i>	<i>2023- y.</i>	
Paxta xom ashyosi jami	9634,0	10281,0	106,7
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	8400,0	9571,0	113,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-	-
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1234,0	710,0	57,5
Kartoshka – jami	8355,9	8459,4	101,2
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	3395,5	3481,4	102,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4943,4	4958,0	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	16	20	125,0
Sabzavotlar – jami	26258,2	26360,7	100,4
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	5989,6	6045,7	100,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	20268,6	20315,0	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0	0	0,0
Poliz – jami	7574,4	7676,5	101,3
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	5362,6	5416,5	101,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2211,8	2260	102,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0	0	0,0
Meva va rezavorlar – jami	12362,3	12606,6	102,0
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	3618,4	3670,7	101,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	8743,9	8935,9	102,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0	0	0,0
Uzum – jami	2467,8	2267,3	91,9
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	168,1	157,3	93,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2299,7	2110,0	91,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0	0	0,0

Chorvachilik. 2023-yilning 1-oktabr holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,4 foizga (jami 88801 boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 100,9 foizga (38231 bosh), qo'y va echkilar 101,1 foizga (61489 bosh) o'sdi.

**2023- yil 1- oktabr holatiga chorva mollari
va parrandalar bosh soni**

	<i>bosh</i>	<i>O'sish surati, %</i>
Yirik shoxli qoramollar	88801	101,4
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	4 714	109,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	83 884	101,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	203	102,5
ulardan sigirlar	38 231	100,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2 422	116,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	35 752	100,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	57	96,6
Qo'y va echkilar	61 489	101,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	4 134	117,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	56 735	99,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	830	186,9
Otlar	268	102,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	33	117,9
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	235	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-
Parrandalar	525 772	116,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	83 700	150,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	247 843	100,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	194 229	130,2

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 94,4 foizni, fermer xo‘jaliklarida esa 5,3 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 93,5 va 6,3 foizni, qo‘y va echkilar 91,9 va 6,7 foizni, otlar 87,7 va 12,3 foizni, parrandalar 47,1 va 15,9 foizni tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 13 533,0 tonna go‘sh (2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 100,9 foiz), 108 572,0 tonna sut (100,2 foiz), 32 495,0 ming dona tuxum (100,6 foiz) ishlab chiqarildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>O‘sinh surati,%</i>
Go‘sh (tirik vaznda), tonna	13 533,0	100,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	414,0	100,3
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	12 824,2	100,8
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	294,7	106,6
Sut, tonna	108 572,0	100,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	3 930,0	101,5
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	104 589,0	100,1
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	53,0	117,3
Tuxum, ming dona	32 495,0	100,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	3 065,0	105,6
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	21 249,0	100,2
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8 181,2	100,0
Jun, tonna	181,7	100,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	5,9	100,0

	<i>miqdori</i>	<i>O'sish surati,%</i>
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	175,8	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0	0
Korako'l teri, dona	348	100,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	35	100,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	313	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0	0,0
Olingan asal, tonna	57,7	99,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	12,7	97,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	45,0	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0	0,0
Ovlangan baliq, tonna	1789,7	101,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	1659,0	102,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	113,3	100,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,4	59,4

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi
(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida)



Fermer xo'jaliklari. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 44,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 19,6 foizni tashkil etdi. 2023- yilning 1- oktabr holatiga fermer xo'jaliklarida 4 714 bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 2 422 bosh sigir, 4134 bosh qo'y va echkilar, 33 bosh ot, 83 700 bosh parrandalar mavjud.

VII. ISTE'MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR


Joriy yilning yanvar–sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 860,4 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 41,0 mlrd. so‘mni tashkil qiladi va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 4,8 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi 666,1 mlrd. so‘mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 77,4 % ni tashkil qildi.


Uyushmagan savdo tovar aylanmasi 153,3 mlrd. so‘mni tashkil qilib jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 17,8 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo‘shgan holda) tarkibi, foizda (2023- yilning yanvar–sentabr holatiga)




	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so‘m	2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan foizda	ming so‘m	2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan foizda
Chakana tovar aylanmasi	860,4	101,8	4228,0	100,0

**Tumanda tashqi savdoda
eksport va importni ulushi, foizda**



Tumanda tashqi savdoning 52,9 foizni yani 22,0 mln. dollarni eksport tashkil qiladi. Import 2023- yil yanvar-sentabr oylarida 19, mln. dollarga teng bo'ldi.

**Tumanning ichki va tashqi savdo ko'rsatkichlarining
Xorazm viloyatida tutgan ulushi, foizda**



**Tashqi savdo aylanmasi
(ming AQSh dollari)**

	<i>Tashqi savdo aylanmasi</i>	<i>Eksport</i>	<i>Import</i>	<i>Saldo</i>
2023- yilning yanvar-sentabr oylarida	41594,5	22016,6	19577,9	2438,7

Tuman tashqi savdo aylanmasi 2023-yilning yanvar-sentabrda 41594,5 ming AQSh dollarni, jumladan eksport 22016,6 ming AQSh dollarni, import 19577,9 ming AQSh dollarni, shuningdek tashqi savdo saldosini 2438,7 ming AQSh dollarni tashkil etdi.

VIII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning 1-oktabr holatiga tuman doimiy aholi soni 204,9 ming kishini tashkil qildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,9 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni

(2023- yil 1-oktabr holatiga, ming kishi)


	Jami aholi soni	shu jumladan:		Jami aholi sonidan:	
		erkaklar	ayollar	shahar aholisi	qishloq aholisi
Viloyat	1 983,7	992,8	990,9	656,6	1 327,1
Tuman bo'yicha	204,9	102,4	102,5	31,6	173,3
Ulushi, %	10,3	10,3	10,3	4,8	13,1

Doimiy aholi soni shahar, qishloq kesimida (foizda)



■ Shahar aholisi ■ Qishloq aholisi

Doimiy aholi soni erkak, ayol kesimida (foizda)



■ Erkaklar ■ Ayollar


Shuningdek, 2023- yilning 1- oktabr holatiga tumanda 50,0 % ayollar va 50,0% erkaklar tashkil etgan. Demak, tumanda ayollar soni erkaklar soniga nisbatan ko'pligini kuzatishimiz mumkin.

2023- yil yanvar-sentabrda aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 aholiga, nisbatan	
	2022- y.	2023- y.	o‘shish, kamayish ¹	2022- y.	2023- y. ¹⁾
Tug‘ilganlar	3682	3834	152	24,6	25,8
O‘lganlar	697	695	-2	4,7	4,6
Nikohlar	1204	1203	-1	8,1	7,9
Ajralishlar	151	189	38	1,0	1,2

2023- yil yanvar-sentabrda aholining tabiiy harakati

(kishi)



Tug‘ilish darajasi. 2023- yilning yanvar-sentabrda tug‘ilganlar soni 3834 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (3682 kishi) nisbatan 152 taga ko‘paygan. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 25,2 promilleni tashkil qildi.

Nikoh va ajralishlar. 2023-yilning yanvar-sentabrda FHDYO organlarida 1203 ta nikohlar va 189 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 7,9 ta nikoh (2022- yilning tegishli davrida 8,1 ta) va 1,2 ajralishlar (2022- yilning tegishli davrida 1,0 ta) to‘g‘ri keladi.

Migratsiya. Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida tuman bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 213 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 663 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i -450 kishiga (2022- yilning shu davrida -549 kishi) teng bo‘ldi.


¹ 2020-yil 20-aprel kundan Hazorasp tuman tarkibidan Tuproqqal‘a tumani ajralib chiqqanligi sababli aholida kamayish bo‘lgan.

2023-yil 1-oktabr xolatiga aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldos	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Viloyat bo'yicha	5168	5901	6257	7271	-1089	-1370
Tuman bo'yicha	182	213	731	663	-549	-450
Viloyatdagi ulushi, %	3,5	3,6	11,7	9,1	x	x

2023- yil yanvar-sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari (kishi)



Tumanning jtimoiy ko'rsatkichlari
(2023-yil 1-oktabr holatiga)

	<i>Soni</i>		<i>Koeffitsienti, 1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr</i>
Doimiy aholi soni, yil oxiriga (ming kishi)	201,1	204,9	x	x
Tug'ilganlar (kishi)	3682	3834	24,6	25,2
O'lganlar	697	695	4,7	4,6
Tuzilgan nikohlar (kishi)	1204	1203	8,1	7,9
Nikohdan ajralishlar (kishi)	151	189	1,0	1,2
Ko'chib kelganlar (kishi)	182	213	1,2	1,4
Ko'chib ketganlar (kishi)	731	663	4,9	4,4

**2023- yil yanvar-sentabr oyi uchun o'rtacha nominal
hisoblangan ish haqi**
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

ming so'm

	<i>yanvar-sentabr 2022- yil</i>	<i>yanvar-sentabr 2023- yil</i>	<i>O'sish sur'ati, %da</i>
Xorazm viloyati	3068,2	3649,3	118,9
Hazorasp	2256,5	2710,2	120,1

O'rtacha oylik ish haqi. 2023- yil yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3649,3 ming so'mni, tumanda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2710,2 ming so'mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud.

Izohlar uchun

**HAZORASP TUMANINING
ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI
2023- YIL YANVAR-SENTABR**

Nashrga mas‘ul:
**Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig‘ma axborot-tahliliy ishlar bo‘limi**
tel. 62-224-65-02

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Urganch sh. Al-Xorazmiy ko‘chasi 93-uy**

veb-sayt: www.xorazmstat.uz
elektron pochta: xorazmstat@umail.uz